

NUTQ FAOLIYATI TURLARINI O'RGANISH

Andijon davlat chet tillari insituti

Xorijiy til va adabiyoti Nemis tili yo'nalishi

402-guruh talabasi **Ahmadjonova Zebo**Ilmiy rahbar: **Qodirova Nargiza**

Annotatsiya: Nutq faoliyati – bu til vositalari yordamida insonlarning bir-birlariga fikr almashish jarayonidir. Ushbu maqolada nutq faoliyatining og'zaki va yozma shakllari tahlil qilingan bo'lib, ularning ijtimoiy ahamiyati, shaxs rivojlanishidagi o'rni va pedagogik jarayonlardagi roli o'rganilgan. Nutqning madaniyati, to'g'riligi, mantiqiyligi va ifodaliligi kommunikativ aloqada muhim ahamiyatga ega. Yozma nutq orqali o'tmish tajribalari kelajak avlodga yetkaziladi, og'zaki nutq esa bevosita muloqotda ishtirok etish uchun kerakli vosita hisoblanadi. Nutq faoliyatining chuqur va tizimli o'rganilishi tilshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlari uchun katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Nutq faoliyati, og'zaki nutq, yozma nutq, nutq madaniyati, pedagogik mahorat, kommunikatsiya, tilshunoslik, shaxs rivojlanishi.

Abstract: Speech activity is the process by which individuals exchange ideas through the use of language. This article analyzes the spoken and written forms of speech activity, focusing on their social significance, role in personal development, and importance in educational processes. The culture of speech, correctness, logic, and expressiveness are crucial in communicative interactions. Written speech preserves the experiences of the past for future generations, while spoken speech serves as an immediate communication tool. The comprehensive study of speech activity is of great importance for linguistics, pedagogy, and psychology.

Keywords: Speech activity, spoken speech, written speech, speech culture, pedagogical skill, communication, linguistics, personal development.

Аннотация: Речевая деятельность – это процесс обмена мыслями между людьми с использованием языка. В данной статье анализируются устные и письменные формы речевой деятельности, их социальное значение, роль в личностном развитии и значение в образовательных процессах. Культура речи, правильность, логичность и выразительность играют важную роль в коммуникативных взаимодействиях. Письменная речь сохраняет опыт прошлого для будущих поколений, тогда как устная речь служит непосредственным инструментом общения. Глубокое изучение речевой деятельности имеет большое значение для лингвистики, педагогики и психологии.

Ключевые слова: Речевая деятельность, устная речь, письменная речь, культура речи, педагогическое мастерство, коммуникация, лингвистика, личностное развитие.

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlashish, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Nutq faoliyati kishilarning birbirilariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og'zaki tarzda va yozma tarzda. Yozma nutq og'zaki nutqdan so'ng yozuv ta'sirida paydo bo'lgan bo'lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi

grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki nutq kabi kishilar o'rtasidagi bevosita aloqa vositasi emas, balki u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta'minlaymiz.

Shaxsni har tomonlama barkamol qilib inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon hisoblanib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatdagi yetuk shaxslar jalb etilgan. Bu holat kelajak avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarda foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tadbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi barkamol avlod ta'lim – tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy – ahloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, nafaqat, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolarga yo'l qo'ymaslik, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi kelajak avlod ongi kamolotining poydevori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasbhunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu

ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishini, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarni har tomonlama rivojlanirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'quvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart – sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ma'naviy – metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashishi lozim.

Nutq madaniyati tildan maqsadga muvofiq va ta'sirchan tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning yig'indisi bo'lib, tilda mavjud bo'lgan, uning imkoniyatlaridan kelib chiqadigan xilmaxil ifoda vositalaridan fikr uchun eng ma'qullarini tanlay bilish va shu asosda go'zal nutq tuza olish mahorati hisoblanadi. Nutqning madaniyligi to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ifodaliligi, boyliigi, sofliigi kabi bir qator kommunikativ sifatlarga asoslanadi. Bu sifatlarni nutqiy aloqani ta'minlash bilan birga tinglovchi yoki o'quvchiga nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sirini kuchaytiradi.

Xulosa o'rida shuni aytish mumkinki, nutq faoliyati — bu insonning til vositasida muloqotga kirishib, fikr almashish, axborot yetkazish va tushunishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik jarayonidir. Mazkur maqolada nutq faoliyatining asosiy shakllari — og'zaki va yozma nutqning xususiyatlari, ularning jamiyatdagi o'rni hamda shaxs rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilindi. Nutq faoliyatining samarali yuritilishi shaxsning nutq madaniyati, tilga bo'lgan estetik munosabati va muloqot madaniyatiga bog'liqdir. Yozma nutq orqali tarixiy meros avloddan-avlodga yetkaziladi, og'zaki nutq esa bevosita muloqotda hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, nutq faolligi va to'g'ri nutq tarbiyasi o'qituvchilik kasbi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, pedagogik jarayonda bu malakalarni shakllantirish va rivojlantirish muhim o'rin tutadi. O'qituvchining kasbiy va nutqiy mahorati nafaqat o'quv jarayonining sifati, balki yosh avlodning tafakkuriy va axloqiy kamoloti uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijada, nutq faoliyatining chuqur va tizimli o'rganilishi nafaqat tilshunoslikda, balki pedagogika, psixologiya va kommunikatsiya fanlari uchun ham katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Qo'ngurov, Yo.Tojiyev, E. Begmatov. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - T., 34-36- bet.
2. E.Begmatov , A. Boboyeva, M. Asomiddinova, B. Umurqulov. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari . – T., 39-41 bet.
3. T. Qudratov . Nutq madaniyati asoslari. - T., 22- bet.
4. www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti.